


“Qiyinchilikdan chiqishning eng yaxshi yo’li qiyinchilik orqali o‘tishdir.”

*Anonim muallif*




“Orqamizda va oldimizda turgan narsa bizning ichimizdagi narsalarga nisbatan kichik narsalardir.”

*Ralf Valdo Emerson*



## OFIS MANZILI:

Oilaviy aralashuv dasturi (FIP)  
(Oila xavfsizligi markazi)  
610 Murfreesboro Pike  
Nashville TN 37210



Oilaviy aralashuv dasturi (FIP) Oila xavfsizligi markazida joylashgan. Yetib kelganingizda, xavfsizlik tekshiruvidan o‘ting.



Uchrashuv tayinlash uchun  
(615) 862-7773 raqamiga  
qo‘ng‘iroq qiling

Ushbu loyiha 2017-VA-GX-0051 sonli sovrin tomonidan qo‘llab-quvvatlandiki, bu sovrin Jinoyat jabrlanuvchilari idorasi, Adliya dasturlari boshqarmasi, AQSh Adliya vazirligi tomonidan Tennessee Jinoyat adliyasi dasturlari idorasi orqali berilgan.

Uzbek

## OILALARNI YANA QAYTA BIRLASHTIRISH



## SIZGA YOKI SIZ BILGAN BIROR INSONGA NISBATAN JINOYAT SODIR ETILGANIDA

Har doim jinoyat sodir bo'lganda, bu ko'p odamlar - jabrlanuvchi, uning oila a'zolari, do'stlari va hatto butun jamiyatga ta'sir qiladi. Hech kim jinoyatning jismoniy va ruhiy ta'siriga tayyor bo'lmaydi, bu ta'sir jinoyatdan ziyon ko'rganlar uchun ham, ularning oilalari va do'stlari uchun ham halokatli bo'lishi mumkin. Hayoti jinoyatdan ziyon ko'rgan odamlarning haqiqiy azob-uqubatlarini yaxshi his qiladigan Nashville metropolit politsiya departamenti (MNPd) 1975-yildan beri jinoyat jabrdiydalariga va hayoti zo'rvonlik jinoyatlaridan ziyon ko'rgan insonlarga maslahat, himoya va qo'llab-quvvatlash xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda.

## YORDAM SHU YERDA

2016-yilda MNPdning ikkita maslahat va himoya dasturlari, Jabrlanuvchilar uchun aralashuv dasturi (VIP) va uydagi zo'rvonlik bo'yicha maslahat xizmatlari birlashtirilib yagona Oilaviy aralashuv dasturiga (FIP) aylantirildi. Ushbu xizmatlar negizida jinoiy harakat natijasida jarohatni boshdan kechirgan har bir kishiga inqirozli vaziyatlarda bepul va tezkorlik bilan yordamni taklif qilish va undan keyingi bosqichlarda vaziyatni nazoratga olish lozim, degan g'oya yotadi. Ruhiy salomatlik bo'yicha litsenziyalangan mutaxassislar va bilimdon advokatlardan iborat Oilaviy aralashuv dasturi (FIP) xodimlar zo'rvonlik ta'siriga uchraganlarga o'z hayotlarida osoyishtalik va muvozanat hissini topish va tiklanishda yordam berishni o'zlarining asosiy maqsadi, deb biladilar. Jabrlanuvchining jinoyatchini jinoiy javobgarlikka tortish to'g'risidagi qarori uning bu dastur xizmatlaridan foydalanishga haqlilik maqomiga ta'sir qilmaydi. FIP dasturining missiyasi insonlar, oilalar va/yoki jamiyat zo'rvonlik jinoyatlaridan jabr ko'rganda ularga ruhiy salomatlik xizmatlarini ko'rsatish va ularni jinoiy sudlov tizimida himoya qilishdan iborat. Barcha xizmatlar bepul, maxfiy bo'lib, ular madaniy xilma-xillikni, ya'ni irqi, dini, e'tiqodi va jinsiy orientatsiyasi bo'yicha xilma-xillikni qo'llab-quvvatlaydigan muhitda taqdim etiladi.



## KENG QAMROVLI XIZMATLAR

Mehribon va madaniyatli xodimlar quyidagi xizmatlarni ko'rsatadilar:

### INQIROZLI VAZIYATDA ARALASHUV

Jinoyat haqida xabar berilganda, jabrlanuvchilar va fuqarolarga 24 soat davomida javob berish.

### MASLAHAT BERISH

Jinoyatdan jabrlangan shaxslar, oila a'zolari va boshqalarga professional maslahat xizmatlari. Yil davomida turli jabrlanuvchilar/omon qolganlar uchun yordam guruhleri taqdim etiladi.

### GURUHLARGA INQIRIZDA JAVOB BERISH

Bizneslar, maktablar yoki boshqa guruhlar zo'rvonlikdan jabr ko'rganda inqirozli vaziyatlarda aralashuv ta'minlanadi.

### ADVOKATLIK VA DA'VOLARNI YURITISH

Politsiya va sud jarayonlarida yo'l-yo'riq, yordam berish va oydinlashtirish. Asosiy ehtiyojlarni qondirishni ta'minlash va Tennesida jinoiy jarohat uchun tovon olish uchun ariza berishda yordam beriladi.

### MAXSUS XIZMATLAR

Neshvillning turli millatlardan tashkil topgan aholisi uchun millat madaniy jihatlarni inobatga oladigan huquqiy himoya/tashviqotlar, shu jumladan qochoqlar va immigrantlar bo'yicha mutaxassislar, ikki tilda so'zlasha oladigan xodimlar, bir nechta tillarda ma'lumotlar berish va kerak bo'lganda tarjimonlar xizmatidan foydalanish.

### MASLAHAT VA TRENING

Jamoatchilik guruhleri va mutaxassislar uchun FIP xizmatlari, travma/jabrlanish oqibatlarini haqida xabardorlik va tushunchalarni oshirish uchun taqdimotlar; va muayyan millatga mansub jabrlanuvchilar uchun madaniy xabardorlik va javobgarlik.

### MA'LUMOT VA YO'NALTIRISH

Tibbiyot muassasalari, ijtimoiy xizmatlar va jinoiy sudlov tizimi bilan muvofiqlashtirish.

## BU SIZNING QO'NG'IROQINGIZ

Oilaviy aralashuvi dasturining asosiy maqsadi insonlar va ularning yaqinlariga inqirozdan keyin salomatlik va farovonlikni tiklashga yordam berishdir. Agar siz yoki tanishlaringiz jinoyat jabrlanuvchisi bo'lsa, quyida ko'rsatilgan tegishli raqamga qo'ng'iroq qiling.

### Oilaviy aralashuv dasturi (615) 862-7773

### BOSHQA KONTAKT RAQAMLARI

Politsiya tergov uchastkalari:

Shimoliy uchastka	(615) 862-7901
Janubiy uchastka	(615) 862-7763
Sharqiy uchastka	(615) 862-7525
G'arbiy uchastka	(615) 862-7385
Midtaun hils uchastkasi	(615) 880-1513
Ermitaj uchastkasi	(615) 862-6993
Medison uchastkasi	(615) 880-3311
Markaziy uchastka	(615) 862-7044
Jinsiy jinoyatlar bo'limi	(615) 862-7540
Oiladagi zo'rvonlik jinoyatlari bo'limi	(615) 880-3000
Okrug prokuraturasi	(615) 862-5500
Tennesida jinoiy jarohat uchun tovon	(615) 741-2734

### XARITA VA MARSHRUT YO'NALISHLARI HAQIDA MA'LUMOT UCHUN ORQA PANELGA QARANG.



(615) 862-7773